

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI

3-kurs “V” guruhi talabasi

O'RINBOYEVA GULSHODAXON

**ROSSIYA IMPERIYASI - YIRIK
MUSTAMLAKACHI DAVLAT**

Mavzusida yozgan

РЕФЕРАТИ

Ish rahbari: katta o'qituvchi B. H. Abdullayev

Andijon – 2016 yil

Reja

Kirish

- 1. Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosati**
- 2. Rossiyaning Bolqon yarim orolida olib borgan siyosati. Rossiya-Turkiya urushi**
- 3. Rossiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati va rus-yapon urushi**

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

XIX asr oxirlariga kelganda Rossiya Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri bo‘lib qoldi. Uning territoriyasi (taxminan 16 mln. kv.km) shimolda Barens dengizidan tortib, januda Kavkaz va Qora dengizgacha, g‘arbda Baltika dengizidan tortib, sharqda Tinch okengacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan edi.

Rossiya imperiyasi jahonning qudratli davlatlari Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya imperiyalari qatori katta mustamlakachi davlat bo‘lib qoldi. Boltiq bo‘ylaridan Kavkaz tog‘larigacha, Ukraina dashtlaridan Uzoq Sharq va O‘rta Osiyo hududlarigacha cho‘zilgan yerlarda imperianing ikki boshli burgut tasviri tushirilgan oq-yashil bayrog‘i o‘matilib, Rossiya Polsha, Finlyandiya, Boltiqbo‘yi mamlakatlari, Kavkaz o‘lkasi, Boshqirdiston, Sibir va qalmoqlar yurti uning taxti tasarrufiga muhrlandi va bu hududlarni mustamlaka asoratiga solgan salobatli va shafqatsiz imperiya edi.

1864-1885 yillarda 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasining uzoq vaqt davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi.O‘rta Osiyo xonlikrai hududining katta qismini 1.583.255 kv.km bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi.

Yevropaning ilg’or jamoatchiligi XIX asr oxirida Rossiyani “beedad miqdordagi mulk o‘g’risi”, deb ta’riflab, “hisob-kitob vaqt kelganda,u bu mulklarni o‘z egalariga qaytarishga majbur bo’ladi” deb bashorat qilgan edi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Biz bugun bir tarixiy davrda-xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu va ulug’ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanib,demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo’lida ulkan natijalarni qo’lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”¹

Shunday ekan Rossiyaning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini, Rossiyaning Bolqon yarim oroli va Uzoq Sharqda olib

¹ I.A.Karimov. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta`minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish- bizning bosh maqsadimizdir.T.,2013, 3-bet

brogan tashqi siyosat hamda XX asr boshlarida Rossiyada ro`y bergan inqilobiy harakatlarning tarixini o`rganish tarix fanining dolzarb masalalaridan biri bo`lib qolmoqda.

Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi tarixini o`rganilishi ularni yangi adabiyotlardagi talqinini tizimlashtirish va tahlil qilish asos qilib olindi.

Mazkur ishning maqsadi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumini o`rganish va tahlil qilishdan iborat.

Asosiy maqsaddan kelib chiqib, mazkur ishda quyidagi vazifalar asosiy vazifalar tarzida belgilab olindi:

- Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosati mohiyatini ochib berish;
- Rossiyaning Bolqon yarim orolida olib borgan siyosati, Rossiya-Turkiya urushining boshlanish sabablari va urushning natijalarini tahlil qilish;
- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yoritib berish;
- XX asr boshlarida Rossiyada ro`y bergan inqilobiy harakatlarning sabablarini ochib berish.

I. ROSSIYANING O'RTA OSIYODA OLIB BORGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

XIX asr oxirlariga kelganda Rossiya Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri bo'lib qoldi. Uning territoriyasi (taxminan 16 mln. kv.km) shimolda Barens dengizidan tortib, januda Kavkaz va Qora dengizgacha, g'arbda Baltika dengizidan tortib, sharqda Tinch okengacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan edi.

Rossiya xalqlari o'zlarining mehnati va qahramonona kurashi bilan qudratli davlat barpo qildilar, ilgari hech kim yashamagan ko'p yerlarni o'zlashtirdilar, jahon tarixi va madaniyatiga buyuk hissa qo'shdilar.

Rossiya territoriyasida iqlim sharoiti juda xilma-xildir. Mamlakat Yevropa qismining shimolida hamda Sibirda sovuq qutb iqlimi hukum suradi, ya'ni qish qattiq va uzoq vaqt davom etadi, yoz esa juda qisqa bo'ladi. Rossiyaning o'rtasintaqasida iqlim mo'tadil bo'lib, janubiy rayonlarda esa ilikdir. Rossiyada o'rmonlar, daryo va ko'llar juda ko'p. Janubda bepoyon cho'l-adirlar cho'zilib ketgan bo'lib, bu yerlarda aholi kam yashaydi.

Rossiyaning aholisi XIX asr davomida ko'paya borib, 11 million kishidan 36 million kishiga yetdi. Rossiya aholisining yer jihatidan Yevropadagi yirik mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu vaqtida Fransiyada 27 million kishi, Angliyada esa mustamlakalarni hisoblamaganda) 16,4 million kishi yashardi. Lekin Rossiyada aholining zichligi juda kam bo'lib, 1 kv. km ga 1,25 kishi to'g'ri kelardi¹.

Rossiya – ko'p millatli davlat. Uning tarkibiga turli xalqlar (ruslar, ukrainlar, beloruslar, polyaklar, finlar, litvaliklar, chuvashlar, marilar, mordvalar, buryatlar, yoqtular, evenklar va boshqa ko'pgina xalqlar) kirgan bo'lib, ular ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turar edilar. Aholining asosiy qismi ruslardan iborat bo'lib, ular butun aholiga nisbatan 60-70 foizini tashkil etar edi².

¹ История России XX век. Минск, РИВШ, 2005, стр-19

² Фомченко А Русские население в Туркестанском крае Т., 1983, с-37

70- yillarda rus hukumati bilan ingliz hukumati o‘rtasida O‘rta Osiyodagi ta’sir doiralarini aniqlash uchun muzokalarlar boshlandi va 1873- yili bitim tuzish bilan yakunlandi. Bunga muvofiq, Rossiya Afg‘onistonni o‘z ta’siridan tashqari deb topdi. Angliya esa Xivani da’vo qilmaydigan bo‘ldi. Bu bitim O‘rta Osiyodagi kurashni vaqtincha susaytirdi, ammo Qo‘qon xonligining Rossiyaga qo‘sib olinishi inglizlar siyosatini faollashtirib yubordi va rus-ingliz munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Bu narsa, chunonchi, 1878- yilda boshlangan ingliz-afg‘on urushida va “Sharq inqirozi” davomida Angliyaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borganligida na-moyon bo‘ldi.

1881-yil 9-dekabrda Tehronda fors-turkman chegarasi to‘g‘risidagi maxfiy bitim imzolanib, bunda Rossiya tarkibiga yangidan kiritilgan hudud chigcaralari aniqlandi. Bu hududlar hozirda Turkmaniston va Eron chegaralari bo‘lib hisoblanadi. Shu yili Rossiya va Xitoyning Turkiston general-gubernatorligi va Xitoy o‘rtasida chegara chizig‘ini o‘tkazish bo‘yicha shartnomasi imzolandi.

1884- yili Rossiya Marini egallab, Kushkaga chiqdi. 1885-yil 26-martda Kushkada afg‘on harbiy qismlari mag‘lubayatga uchradi. Rossiya Kushkani bosib olib, asosiy punkt –Hirot va Qandahorni qo‘lga kiritdi. Shundan so‘ng Angliya va Rossiya o‘rtasidagi Afg‘onistonning taqdiri va uning chegarasini belgilash masalasi kun tartibiga qo‘yildi. 1885–1887- yillarda bu masala rus-ingliz komissiyasi tomonidan hal etildi.¹

1891- yili Rossiyaning tasarrufiga kirgan O‘rta Osiyo hududi va Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara Pomirdan o‘tkazildi. Bu bitim O‘rta Osiyo masalasi bilan bog‘liq Angliya va Rossiya o‘rtasidagi kelishmovchilikni tugatdi. Lekin shunga qaramasdan ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi saqlanib qoldi. O‘rta Osiyodagi o‘zaro manfaatlarni tartibga solish va munosabatlardagi “sovuqlikni” yo‘qotish maqsadida Rossiya va Angliya bu yerdagi o‘z ta’sir doiralarini bo‘lib olishga qaratilgan konvensiyani imzoladilar. Chunki bu paytda ikkala davlat uchun ham Yevropada Germaniya xavf tug‘dirayotgan edi. Shu bois, Rossiya va Angliya O‘rta Osiyo masalasini vaqtinchalik

¹ M. Lafasov, E. Xoliqov, D. Qodirova Jahon tarixi. T., 2002, 128-bet

to‘xtatib, kuchayib borayotgan Germaniya davlati bilan siyosat maydonida kurash boshladilar¹.

Rossiyaning ikki boshli burgut tasviri tushirilgan mudhish mustamlakachilik bayrog‘i Boltiq buylaridan Kavkaz cho‘qqilarigacha, Ukraina dashtlaridan O‘rta Osiyo kengliklari va Uzok, Sharq tizmalari kadar hilpirab turdi. Polsho Rossiyasi Polsha, Finlyandiya, Kavkazorti, Boshqirdiston, Sibir va qalmoqtar yurtini mustamlaka asoratiga solgan salobatli va shafqatsiz imperiya edi².

Sankg-Peterburg hukmron doiralari Buyuk Britaniyaning Hindistondagi va Fransiyaning Tunis hamda Jazoirdagi mustamlaka tartiblarini, tajribalarini o‘rgangan holda o‘zlarining ulardan tubdan farkli, aynan ruscha mustamlakachilik tizimlarini yaratdilar. Uni Turkistonda zo‘ravonlik yo‘li bilan amalga oshirdilar. Rossin imperiyasining O‘rta Osiyodagi tartiblari Polsha, Finlandiya va Kavkazdagidan ham tafovutli xususiyatga ega edi. Bu xususiyat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularga bepisandlarcha qarash kabi shovinistik ruh va kayfiyatlardan iborat edi. Bu harbiy-komendantlik boshqaruvi mashinasining ruli o‘taketgan makkor, razil, O‘rta Osiyo xalklarining ashaddiy dushmanlari qo‘liga topshirilgan edi.

Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida o‘z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan har tomonlama aloqala o‘rnatishga harakat qildi. Bunda, eng avvalo xonliklar to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotlar to‘plash maqsadida o‘z elchilarini bu yerlarga jo‘natdi. Pyotr I hukmronligi davridayoq Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya jo‘natilgan edi. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so‘ng podsho hukumati harbiy istehkomlar qurishga kirishdi. 1718-yilda Irtish daryosi sohilida shunday istehkomlardan yettitasi qurib bitkazildi.

O‘rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularga Rossiya iperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklifi bilan Buxoroga kclgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Ch. Stoddart va A.Konnoli

¹ D .Abdurahmonova, G.Rustamova XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida mustamlaka hokimiyyati tizimi T.,1999 82-bet

² Исхаков Ф Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917) Т.,1997 с- 7

1842-yilda amir tomonidan qatl qilindi. Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan suluq tuzib, ularni qurollantiradi. Shundan keyin, Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. Natijada 1855-yilda o'zbeklar va tojiklar yashay-digan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi¹.

Chcgara hududlarida yashaydigan Rossiya imperiyasi fuqarolari bo'lgan aholiga talonchilik va bosqinchilik qilib turuvchi guruhlarning hujumlarini bartaraf etish podsho hukumatining O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarini boshlashiga bahona bo'ldi. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati uchun xomashyo bo'lgan paxtaning yetishmasligi O'rta Osiyonisini bosib olishga bo'lgan harakatlarini tezlashtirdi. Bu davrda AQShda shimol va janub o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861-1865) tufayli Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga taqchillik vujudga keldi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi uzoq vaqt davom etgan o'zaro urushlar ularning iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashib ketishiga olib koldi. Shunday vaziyat oxir-oqibat xonliklarning istilyo qilinishlarini osonlashtirdi.

Shunday qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, ichki nizo va ziddiyatlar, davlat boshqaruving uzoqni ko'zlab ichki va tashqi siyosat olib bormaganliklaridan ahvolga tushib qoldi. Shunday vaziyatda Rossiya imperiyasi hukumati o'zining siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini ko'zlab O'rta Osiyoga harbiy mustamlakachilik harakatlarini boshlaydi.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olnishi to'rt bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1847 -1865-yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoliy-g'arbiy viloyatdan va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati

¹ Хидоятов Г.Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. Т., 1969, стр-102

tashkil etildi. Ikkinci bosqich 1865-1868-yillari qamrab olgan bo‘lib, bunda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi. Uchinchi bosqich -1873 -1879-yillar davomida Xiva va Qo‘qon xonligi yerlarini bosib olishdan iborat bo‘ldi. To‘rtinchi bosqich - 1880-1885-yillarda turkmanlarning bo‘ysundirilishi edi. Shunday qilib, 1864 - 1885-yilarda 20 yildan ortiq vaqt davomida Rossiya imperyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi. O‘rta Osiyo xonliklari hududining katta qismini (1583255kv. km) bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi.¹

Rossiya mustamlakachilik tizimining uchinchi xususiyati mintaqada rus aholisining ma’lum bir foizini joylashtirish edi. Markaziy Rossiyadan ochlik va yersizlikdan qochgan rus dehqonlarini ko‘chirib keltira boshladilar. Ammo shaharlarda rus aholisini shakllantirish siyosati ahamiyatga ega edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahri rus aholisi hisobiga shitob bilan kengayib bordi. Bu aholining katta qismi iste’foga chiqqandan keyin shaharda yashash uchun qolgan askarlar, davlat boshqaruvi amaldorlari, Rossiya armiyasi ofitserlari, Rossiya firmalari xizmatkorlari, jazo manziliga jo‘natilgan jarimaga tortilgan xizmatchilar, xizmatdan bo‘shatib yuborilgan ofitserlar edi.

Anhor shaharni qoq ikki qismga ajratgandi: Eski shaharda mahalliy aholi. Yangi shaharda esa rus aholisi yashardi. Shaharning bu ikki qismi o‘z iqtisodiy va ma’naviy hayotini boshdan kechirar bir-biri bilan kamdan-kam aralashigan holda yashalar edi.

Rossiya fransuz mustamlakachilaridan o‘rgangan, bu tizim “plantatsion model” deb yuritilar edi. Bu tizimga ko‘ra Turkiston aholisining bir qismi etnik ruslardan iborat bo‘lishi, ular asosan

¹ S. Tillaboyev, A. Zamonov O‘zbekiston tarixi T.,2010, 22-bet

shaharlarda yashashi, shahar qishloq ustidan hukmron bo‘lishi kerak edi. Turkiston o‘lkasining 14 % aholisi shaharlarda yashardi.¹

O‘rta Osiyon bosib olish maqsadida Pyotr I zamonidayoq Qozog‘istonning zabt etilgan hududlarida harbiy qafalar va istehkomlar qurila boshlangan edi. 1717-yilda Omsk, 1718-yilda Semipalatinsk, 1720-yilda Ust-Kamenogorsk, 1742-yilda Orenburg qal’alari quriladi. Faqat XVIII asrning o‘zida Chor ma’murlari yovuz niyat bilan hozirgi Qozog‘iston hududlarida 46 ta katta va 96 ta kichik harbiy qal’a va istehkomlar qurbanlar. XVIII asrning boshlarida har uchala Juzning qozoqlari qalmiq (jungar)larning doimiy bosqini ostida og‘ir ahvolga tushib qoladi. 1723-yilda ro‘y bergen og‘ir ocharchilik qozoqlarning o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishlarini xavf ostiga solib qo‘yadi. Oqibatda katta Juz jungarlarga siyosiy qaram bo‘lib qoladi. O‘rta Juz Buxoroga ko‘chib borib Buxoro xonligiga, Kichik Juzning bir qismi esa Xiva xonligiga tobe bo‘ladi. Bunday og‘ir vaziyat Katta va Kichik Juzning xoni Abulxayrxonni o‘z hokimiyatini saqlab qolish va qalmiqlar xataridan saqlanish ilinjida chor hokimiyati bilan yaqinlashuvga majbur etadi. Ana shu tariqa 1731-yilda Kichik Juz, 1731-1740-yillarda esa Katta Juz qozoqlarining aksariyati rus davlatining tobelligiga o‘tadi.²

Bu Pyotr I orzu-armonlarining ro‘yobga chiqishining boshlanishi edi. Qozoqlarning rus fuqaroligini qabul qilishlari chor mustamlakachi ma’murlarining Turkiston yerlarini egallash borasidagi bosqinchilik harakatlariga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Biroq Yevropadagi davlatlar o‘rtasidagi vaziyatning tobora taranglashib va chigallashib borishi, rus-turk urushi (1806-1812), rus-shved urushi (1808-1809), rus-fors urushi (1805-1813) va nihoyat Napoleonga qarshi 1805-1812-yillardagi to‘qnashuv va urush, qolaversa, chor samoderjaviyasiga qarshi dekabristlar nomini olgan dvoryanlar qo‘zg‘oloni va uni bostirish chor hukumatining Turkistonga nisbatan bosqinchilik siyosatini ma’lum muddatga ortga cho‘zilishiga sababchi bo‘ladi. Biroq 1830-yillardan

¹ G. Hidoyatov, V. Kostetskiy O‘zbekiston tarixi, T.,2002, 49-bet

² Ziyoyev H. O‘zbek xonliklari chorizm tomonidan bosib olinishi tarixiga doir.T., 1990 b-28

ma'lum darajada Yevropadagi janjalli voqealardan qo'li bo'shagan chor hukumati yana o'zining ayg'oqchilik va yovuzlik niyatlarini O'rta Osiyo hududlariga qaratadi. 1839-1840-yillarda podsho Nikolay I ning homiyligi va fatvosi bilan Orenburg harbiy gubernatori V.A.Perovskiy katta qo'shin bilan Xivani bosib olish niyatida yo'lga chiqadi. Maqtanchoq va bosar-tusarini bilmaydigan Perovskiy qo'shini tarkibida 2 ta zambarak, 40 arava, 5325 askar, 10 ming tuya bor edi. Ammo og'ir obi-havo sharoiti, yoqilg'ining yo'qligi, oziq-ovqat tanqisligi, kiyim-kechaklarning yaroqsizligi natijasida Perovskiy qo'shinlari yo'l-yo'lakay katta talofatlar berib Xivaga yurishni to'xtatib orqaga qaytadi¹.

1855-1857-yillardagi Qrim urushi munosabati bilan chor ma'murlari O'rta Osiyonidagi zabt etish bo'yicha katta miqiyosdagi harbiy harakatlarni olib borolmaydilar. Qrim urushidagi mag'lubiyat O'rta Osiyoning Rossiya uchun siyosiy va strategik jihatdan qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Rossiya o'rta Osiyo uchun olib boriladigan raqobatli kurashda Buyuk Britaniya qirolligini nafaqat siyosiy-iqtisodiy va strategik jihatdan balki harbiy jihatdan ham mag'lubiyatga uchratish va Qrim urushidagi mag'lubiyat tufayli xalqaro maydonda bo'shashib qolgan obro'sini tiklashi ham mumkin edi. Chunki hind xalqining butun mamlakatni qoplab olgan va inglizlar tomonidan zo'rlik bilan bostirilgan 1857-yilgi qo'zg'oloni Buyuk Britaniyaning Hindistonidagi mavqeyi uncha mustahkam emasligini ko'rsatdi. Shu boisdan Rossiya hukmron doiralari o'rtasida O'rta Osiyo muammosini tezroq hal qilishga chorlovchi xat, da'vat va takliflar 1860-yillarda tez-tez ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. Jumladan, Orenburg general-gubernatori Katenin tashqi ishlar vaziriga yozgan xatida "O'rta Osiyo mulkiga hukm-ronligimizni o'rnatishimiz uchun albatta Turkiston va

¹ "Sharq yulduzi" 1990 yil, 8-son, 184-bet.

Toshkentni egallashimiz shart” deb ko‘rsatdi. Uning fikricha, Toshkentni qo‘lga kiritish Buxoro mulklariga qurolli kuchlar bilan borish uchun albatta zarurdir¹.

Chimkentda bir kecha-kunduz qattiq jang bo‘ladi. Muhammad Solih o‘zining “Tarixi jadidi Toshkand” asrida yozishicha: “So‘ngra to‘rt tomondan askarlar otdan tushdi va karnay sadolari ostida rus askarlariga qarshi hujumga o‘tiladi. Himoyachilar 2-3 ming qadam yugurgach, dushmanning to‘p va miltiqlaridan yomg‘irdek yog‘ilgan o‘qlar ostida qoldilar”. Oqibatda 12 ming kishi halok bo‘ladi va yaralanadi² Ammo general Chernyayev boshchiligidagi chor qo‘sinchilari urushni davom ettira olmay Turkistonga qaytishga majbur bo‘ladi. Jinay degan joyda bo‘lgan jangda ham vatanparvarlarning qo‘li baland kela-di. Vatan himoyachilari Ikon qal’asi uchun bo‘lgan jangda ham g‘alabaga erishadilar. Alimqul boshchiligidagi yurt himoyachilari urushni davom ettirish maqsadida tayyorgarlik ko‘rayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarxonning Qo‘qonga hujum qilganligi to‘g‘risida xabar oladi. Natijada lashkarboshi Alimqul qo‘sinning katta bir qismini Chimkentda qoldirib o‘zi Qo‘qonga qaytishga majbur bo‘ladi. Albatta bu hol dushmaniga qo‘l keladi va Chernyayev 1864-yil 21-sentabrda Chimkentni jang bilan egallaydi. Shahar mudofaachilaridan ko‘p kishi qirib tashlanadi³.

Shu paytga qadar ikki yo‘nalishda mustaqil harakat qilib kelgan chor armiyasining ikki qo‘sini Chimkent shahrida tutashadi. Istilyo qilingan yerlar hisobiga 1865-yilda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etiladi; uning tepasiga general Chernyayev qo‘yiladi.

1877-yilda Toshkentda shahar Nizomi joriy etilgan, unga muvofiq shahar boshqaruvi Dumaga o‘tgan edi. Duma a’zolarining 1/3 qismi shaharning “Osiyo” bo‘lagidan 2/3 qismi esa “yangi” Toshkent aholisi tomonidan saylangan edi. Natijada shaharning 80 ming mahalliy aholisidan bo‘ldi. Shahar xo‘jaligini yuritishga oid barcha ishlar ana shu Duma qo‘liga o‘tdi. Duma ustidan rahbarlik qiluvchi shahar boshlig‘ini gneral-gubernator taqdimiga ko‘ra Harbiy vazirning o‘zi tasdiqlar edi.

¹ Ravshanov P, O’roqov R .Ajdodlarimiz qadri. T. “Sharq” 1999, 83-bet

² Кастельская З Из истории Туркестанского края (1865-1917) М., 1980,стр 44

³ Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII-нач. XX вв. Т, 2009, стр-107

1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tasdiqlagan Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi yangi Nizom arzimas o‘zgarishlar bilan 1917-yilga qadar amal qildi. Nizom to‘rtta asosiy bo‘limdan iborat bo‘lgan: o‘lkaning ma’muriy tuzilishi, sud tuzilishi, yer tuzilishi soliqlar va yig‘imlar. Bu "nizom" general-gubernatorlik hududiy birliklari nomlarini o‘zgartirishni va ularni bundan buyog‘iga ham bixillashtirib borishni nazarda tutar edi.

Bu Rossiya mustamlakachiligi “plantasion modeli”ning real natijasi edi. Rus aholisi mustamlakachiligi apparatining jonli kuchini tashkil etgan. Chorizm armiyasi rus aholisining o‘lkada hukumron mavqe kafolati edi.

II. ROSSIYANING BOLQON YARIM OROLIDA OLIB BORGAN SIYOSATI. ROSSIYA–TURKIYA URUSHI

XIX asr oxirida Rossianing G‘arb davlatlar bilan munosabatlar ancha yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro‘siga putur yetgan va harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Rossiyaning diplomatik mag‘lubiyati Bolqon yarimorolidagi ustunlikdan mahrum bo‘lish demak edi. Qora dengizning daxlsiz qilinishi mamlakat janubini dushman hamlasi xavfidan himoyasiz qoldirdi va shu bilan birga dvoryanlar hamda sanoat doiralarini ochiq dengizga chiqish yo‘larini qo‘lga kiritish maqsadida istilochilikni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qilib qo‘ydi.

Rus diplomatiyasi yangi sharoitda o‘zining ish usullarini takomillashtira boshladi. U sof diplomatik vositalardan foydalanish bilan birga jamoatchilikning yordamiga suyanishga urinar, matbuot orqali Rossiya va boshqa davlatlarning jamoatchiligi fikriga murojaat qilardi.

Parij kongressida Avstriya bilan Fransiya o‘rtasida bir qadar ziddiyat borligi va shu bilan birga Fransiyaning Rossiya bilan yaqinlashishga mayli borligi aniq bo‘ldi. Sulh tuzilgandan keyin Fransiyaning Rossiya bilan do‘stona munosabatda bo‘ishga intilishi yanada kuchaydi.

Angliyaning qutqusi bilan Turkiya Rossiyaning slavyan xalqlari bilan bo‘lgan janjalni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi taklifini rad etdi. Chor hukumati 1977 yilning aprelida urush boshlashga majbur bo‘ldi, chunki bundan keyingi ikkilanishlar Rossiyaning taslim bo‘lganligini bildirar va Bolqondagi slavyan xalqlari orasidagi obro‘sini butunlay yo‘qotib qo‘yar edi. May oyida Ruminiya ham Turkiyaga qarshi urush boshladi.

Mamlakatning butun ichki hayotini qayta qurish davom etib turgan bir sharoitda rus hukumati uzoqqa cho‘ziladigan urushga tayyorlana olmagan edi. Uning moliyaviy ahvoli hanuz og‘ir edi. Harbiy islohotlar va armiyani qayta qurollantirish ishlari tugamagan edi. Armiyaning jangovar tayyorgarligi hali ham

yangi zamon talablaridan juda orqada qolib kelmoqda edi. Nikolay rejimi sharoitida tarbiyalangan juda orqada qolib kelmoqda edi. Nikolay rejimi sharoitida tarbiyalangan yuqori komanda sostavining ko‘pchiligi yangi taktika qo‘llanishiga qarshilik qilardi. Ammo o‘z birodarlar bo‘lgan slavyanlarga chuqur xayrioxlik bildirgan rus armiyasining jangovorlik ruhi juda baland edi. Soldatlarning jasurligi va fidokorligi, slavyanlarning milliy ozodlik uchun olib borayotgan kurashida ularga yordam berish ishtiy yoqi rus soldatlari va ofitserlarining yuksak ma’naviy xislatlarini belgilar edi.

Urush harakatlari Bolqonda va Zakavkazyeda avj olib ketdi. Rus qo‘mondonligining planiga ko‘ra, Dunay daryosidan kechib o‘tib, shiddatli hujum bilan Bolqon tog‘laridan oshib o‘tilishi va Turkiya poytaxti–onstantinopolga qarab borilishi kerak edi. Bu planni bajarish uchun ancha ko‘p qo‘shin talab qilinardi. Lekin Bolqondagi urush harakatlari uchun ajratilgan kuchlar yetarli emas edi. Turklar o‘z qal’alaiga tayanib, rus qo‘shinlarini Dunaydan o‘tkazmaslikka ishongan edilar. Biroq turk qo‘mondonligining mo‘ljallari puchga chiqdi. 1877 yilning yozida rus armiyasi Dunaydan muvaffaqiyat bilan jang qilib o‘tdi. Gneral I.V. Gurko qo‘mondonligdagi oldingi otryad tezlik bilan Bolgariyaning qadimgi poytaxti bo‘lgan Tirovo shahrini ishg‘ol qildi. So‘ngra Bolqon tog‘laridan o‘tadigan asosiy yo‘l–Shipka dovonini egalladi. Biroq kuch yetishmasligi natijasida bundan keyin oldinga siljish to‘xtab qoldi.

Bolgarlar rus jangchilarini o‘z xaloskorlari sifatida xursandchilik bilan kutib oldilar. Bolgarlar xalq lashkari otryadlari tuzdilar, tog‘dan o‘tiladigan yo‘llarni tozaladilar, yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qildilar, chiqish qiyin bo‘lgan joylarga o‘q-dori va oziq-ovqat yetkazib berib turdilar.

Rus armiyasining Bolqon tog‘larining bu tomonidan keng ko‘lamda harakat boshlab yuborish uchun urinishi natija bermadi, chunki Gurko otriyadida odam juda oz edi, rus armiyasining asosiy kuchlari esa Turkiyaning Plevna qal’asini qamal qilish bilan band edilar. Turkiya qo‘mondonligi bu yerga Chernogoriyadan katta kuch yubordi. Saralangan bu qo‘shin Shipka dovonini

shtrum qila boshladi. Shipka himoyachilari son jihatidan o‘zlaridan besh baravar ko‘p bo‘lgan dushman hujumini uch kun davomida qahramonlarcha qaytarib turdilar. O‘qlar tugagach, soldatlar nayza va toshlar bilan jang qildilar. Shipka pozitsiyalari ruslar qo‘lida qoldi, lekin ularning janubga boradigan yo‘li berkitilgan edi.

Armiyaning g‘arbiy qanotidagi rus qo‘shinlarining Plevna (hozirgi Pleven) yonidagi urush harakati muvaffaqiyatsiz bordi. Turklar bu yerda rus qo‘shinlarining katta kuchlarini to‘xtatib qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi. Rus qo‘shinlari Plevnani uch marta shtrum qildi, juda ko‘p talofatlar berilgan bu hujumlar har safar ham muvaffaqiyatsiz chiqdi. Shunda qo‘mondonlik Plevnani qamal qilib olishga qaror berdi: shahar batamom o‘rab olindi, madad kuchlarining kelishi hamda oziq-ovqat va o‘q-dori olib kelinishi to‘xtab qoldi. Turk armiyasining qurshovi yorib chiqish uchun urinishi natija bermadi. 1877 yil noyabr oyining oxirida 40 ming kishilik Plevna garnizoni taslim bo‘ldi.

Plevnaning taslim bo‘lishi slavyanlarning ozodlik harakatini yuksaltirib yubordi. Serbiya qaytadan urushga kirdi. Turkiyaning kuchlari holdan toydirilgan edi, shuning uchun endi u qattiq qarshilik ko‘rsata olmay qoldi. Gneral Gurko otryadi og‘ir sharoitida Bolqon tog‘laridan oshib o‘tdi, bir qancha janglarda turklarni tor-mor keltirib, Sofiyani ishg‘ol qildi. Gurko o‘z bo‘yrug‘ida soldatlarga murojaat qilib, mana bunday deb yozgan edi: “Bolqon tog‘laridan oshib o‘tildi. Nimaga ko‘proq taxsin o‘qishni bilmaysan kishi: sizlarning dushmanga qarshi olib borilgan janglarda ko‘rsatgan mardlik va jasurligingizgami yoki tikka tog‘larga, izg‘irin sovuqqa va qalin qorlarga qarshi kurashda boshingizdan kechirgan og‘ir mashaqqatlarga chidab berishingizga va sabot-matonatingizgami! Yillar o‘tar va bizning kelgusi avlodlarimiz bu notanish tog‘larga kelib ko‘rib, g‘urur va tantana bilan.” Bu joylardan rus qo‘shinlari o‘tib, suvorovchi va rumyansevchi ajoyib bahodirlarning shon-shuhratini qaytadan ko‘rsatib bergenlar” –deb aytishadi.

Rus armiyasi saflarida bolgar xalq lashkarlarining askarlari ham qahramonlarcha jang qildilar. Ularning qahramonliklari hammani qoyil qoldirdi.

“Bolgar drujinalari sherdek olishardi – deb yozgan edi shu urushda qatnashganlardan biri.–Ular shiddat bilan hujumga otilar, chekinganda esa mahkam turib, qo‘lidan qurolini qo‘ymagan holda dushmanaga tik boqib orqaga chekinar edi. Ular to‘g‘risida to‘qilgan hamma hikoyalar zavq va hayratga to‘la, 20 ming turk qurshovida qolgan 3 ming bolgar o‘z postini bermay qo‘lida saqlab qoldi. Ularning hujumi mislsiz jasorat bilan qilinar edi”. Bolgar xalq lashkarlari bilan rus soldatlarining 1877-1878 yillardagi urushda birgalashib olib borgan kurashi rus-bolgar jangavor hamkorligining ajoyib namunasidir.

Turkiya batamom tor-mor bo‘lish xavfi ostida qoldi. Bu hol Angliya va Avstriya Vengriyani qo‘rqitib yubordi, chunki Turkiyaning tor-mor qilinishi Rossiyaning kuch-qudratini yanada kuchaytirgan bo‘lar edi. Angliya o‘z flotini Marmara dengiziga olib kirdi va Konstantinopol ishg‘ol qilingan taqdirda Rossiya bilan diplomatik munosabatlarni uzajagini bildirib tahdid qildi. Avstriya-Vengriya urush harakatlarining davom ettirilishiga qarshi qat’iy norozilik bildirdi.

Rossiyaning hukumron doiralari oldida Yevropa davlatlari bilan bo‘ladigan katta urush sharpasi kndalang bo‘ldi. Rossiya esa bunday urushga tayyor emas edi. Qo‘mondonlik qo‘shinni San-Stefano qishlog‘ida (Konstantinopol yaqinida) to‘xtatadi va 1878 yil fevralida shu yerda preliminar (datlabki) sulk shartnomasi imzolandi.

Tuzilgan sulk shartlari Rossiya va slavyan xalqlari uchun foydali bo‘ldi. Yangi yirik davlat–Bolgariya tashkil topdi. Turkiya Chernogoriya va Serbiyaning mustaqilligini tan oldi. Ularning teritoriyasi ancha kengaydi. Ruminiya mustaqil davlat deb e’tirof qilindi. Uning territoriyasi ham kengaydi: u Shimoliy Dobrujani oldi. Turkiyaning xristianlar yashaydigan hamma oblastlarida sulton hukumati xalqning ahvolini yaxshilaydigan reformalar o‘tkazish majburiyatini oldi. Janubiy Bessarabiya va Kavkazdaggi Qors oblasti Rossiyaga o‘tdi. Rossiya katta kontributsiya (tovon) oldi.

Angliya va Avstriya-Vengriya Bolqonda Rossiya mavqeining mustahkamlanishidan hamda yirik slavyan davlati – Bolgariyaning tashkil

topishidan norozi edi. Ular San-Stefano shartnomasini Yevropa kongressiyada qayta ko‘rib chiqishni talab qildilar va urush ochamiz, deb Rossiyani qo‘rqita boshladilar. Bunday sharoitda chor hukumati shartnomani qayta ko‘rib chiqish uchun rozilik bildirishga majbur bo‘ldi. 1878 yilning yozida shu masalaga bag‘ishlangan Berlin kongressi bo‘ldi.

Rus delegatsiyasi ancha yon berishga majbur bo‘ldi. 1878 yilgi Berlin traktati (shartnomasi) ga ko‘ra, Bolgariya uch qismga bo‘lindi va faqat Shimoliy Bolgariyagini o‘z davlat mustaqilligini oldi. Chernogoriya va Serbiya territoriyalariga qo‘shilgan yerlar kamaytirildi. Bosniya bilan Gersegovaniyani Avstriya-Vengriya okkupatsiya qildi. Munofiqlik bilan Turkiyani himoya qilish shiori ostida chiqqan Angliya undan Kipr orolini tortib oldi. Berlin shartnomasi Rossiya g‘alabasining natijalarini kamaytirdi.

Shunga qaramay Rossiya-Turkiya urushi Bolqon xalqlari uchun juda katta ijobjiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Serbiya, Chernogoriya va Ruminiya to‘la mustaqillikka erishdi. Rus armiyasi bolgarlarni ko‘p asrlardan buyon davom etib kelgan turklar zulmidan ozod qildi. Bolgarlar ozod fuqaro bo‘lib oldilar va o‘z davlatini barpo etdilar. Bolgar xalqi rus armiyasini haqli ravishda o‘z xalaskori deb biladi.

III. ROSSIYANING UZOQ SHARQDAGI SIYOSATI VA RUS-YAPON URUSHI

Rossiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati ham turli maqsadlarga yo‘naltirilgan edi. Qrim urushi Uzoq Sharqni mudofaa qilish va unda jiddiyroq mustahkamlanib olish zarurligini ko‘rsatdi. Rus savdo-sanoat doiralari ham Uzoq Sharqning qo‘lga kiritilishidan manfaatdor edilar. Amurbo‘yi va Primore tuprog‘i Xitoy hududiga kirar edi. Ammo unda Xitoy aholisi deyarli yo‘q edi. Amurbo‘yi bilan Ussuri o‘lkasini bosib olganligi munosabati bilan Rossiya uchun bu o‘lkalarni mudofaa qilishda Saxalin g‘oyat muhim o‘rin kasb etgan edi. Bu davrda Rossiya bilan Yaponiya yaxshi munosabatda edilar. Rossiya AQSH, Angliya, Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etmadi. 1872- yilda Yaponiyaga doimiy vakil tayinlanib, unga Yaponiya bilan bo‘ladigan munosabatlarda bu mamlakatning ichki ishlariga mutlaqo aralashmaslik haqida ko‘rsatma berilgan edi.

1904 yil 27 yanvarga o‘tar kechasi Yaponiya floti urush e’lon kilmay turib, Port-Arturdagi rus eskadrasiga hujum kildi va uch kemaga shikast yetkazdi. O‘sha kuniyoq yapon eskadrasi Koreyaning Chemulpo portini kurshab oldi, shu portda “Varyag” kreyseri va “Koreyets” kichkina harbiy kemasi turgan edi. Yapon qo‘mondonligi ularga betaraf portni tashlab chikib ketishni taklif etdi, aks xolda reydda o‘t ochamiz, deb tahdid soldi.

“Varyag” kapitani V. F. Rudnev yapon kemalarining safini yorib o‘tishga ahd qildi. U matroslarga qarata so‘zlagan nutqida bunday dedi: “Eskadra qancha kuchli bo‘lmisin, biz uni yorib o‘tishga ketyapmiz va u bilan jang kilamiz... Biz kemalarni ham, o‘zimizni xam dushman qo‘liga topshirmaymiz va bir tomchi konimiz qolguncha jang kilamiz”.

Kreyser ekipajji zo‘r kahramonlik ko‘rsatdi. Hatto yarador, bo‘lgan matroslar va ofitserlar xam to‘plar yonidan nari ketmadilar, o‘z o‘rtoqlariga yordam berib turdilar. Boshidan yaralangan “Varyag” kapitani kema ko‘prikchasiidan ketmasdan o‘z mardligi bilan matroslarni ruhlantirib turdi. Birok, Port-Arturga yorib o‘tishning iloji bo‘lmadi. Ikkala kema ham qattiq shikastlandi. To‘plar ishdan chiqarilgan edi.

Komandalar o‘z kemalarini dushman ko‘liga topshiriishi istamay, “Koreyets” kemasini portlatdilar va “Varyag” kemasini cho‘ktirib yubordilar.

Admiral S. O. Makarov Tinch okean flotining qo‘mondoni etib tayinlanadi. Stepan Osipovich Makarov kambag‘al dengiz ofitseri oilasida tug‘ilgandi. U dengiz ishini juda yaxshi bilar, iste’dodli injener va olim edi. Rossiya-Turkiya urushidayok (1877—1878) Makarov o‘z mardligi bilan shuhrat qozongan edi.

Quruklikdagi urush harakatlari ham rus armiyasi uchun muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Uzoq Sharkdagi qurolli kuchlar bosh ko‘mondoni admiral YE. A. Alekseyev mug‘ombir saroy ayoni va fitnachi, lekin uquvsiz ko‘mondon edi. Manjuriya armiyasiga general A.N.Kuropatkin ko‘mondonlik qilardi. Zamondoshlarining fikricha, u nari borganda faqat ikkinchi darajali rollarni bajarar, chunki jur’atsiz va irodasi zaif edi.

Yapon qo‘shinlari hech monesiz avval Koreyaga, so‘ngra Manjuriyaga kelib turdilar. Kuropatkin dushman kuchlariga teng keladigan kuchga ega bo‘lsa-da, chekinishga buyruk berdi.

1904 yil may oyida Port-Artur asosiy armiyadan ajratib qo‘yildi, keyin esa qal’a garnizoni kuchidan ancha ko‘proq kuchga ega bo‘lgan yapon ko‘shinlari tomonidan qamal kilindi. 1904 yil avgustida Lyaoyan yonida katta jang bo‘ldi. Rus soldatlari mardona turib himoyalandilar va dushmanning tinkasini kuritdilar. Yapon qo‘shinlari maglubiyatga uchray deb turganda g‘alabaga ishonchini yo‘qotgan Quropatkin yana chekinishga buyruk, berdi. Port-Artur o‘z holiga tashlab qo‘yilgandi. Uning garnizoni yolg‘iz o‘zi og‘ir, tengsiz kurash olib borishga majbur bo‘ldi.

Port-Arturda kurshovda kolgan soldat va matroslar ustun bo‘lgan dushman kuchlarining hujumini yetti oydan ko‘proq vaqt davomida qahramonona kaytarib turdilar. General Nogi armiyasi to‘rt marta- kal’aga umumiyl hamla qildi. Ularning kuruklikdagi va dengiz artil-leriyasi shaharni muttasil o‘kqa tutib turdi, lekin Port-Artur himoyachilar qattiq turib mudofaa kildilar vi har safar dushmanni uloktirib tashladilar. General Roman Isidorovich Kondratenko Port-Artur mudofaasining joni-

tani edi. Bu iste'dodli harbiy boshliq o'z harbiy burchini oxirigacha ado etib, qahramonlarcha halok bo'ldi.

Qal'a himoyachilari dushmanga ancha talafot yetkazdilar, Yaponlar Port-Artur yaqinida o'ldirilgan va yarador qilinganlar hisobida 110 mingdan ortiq kishisini yo'kotdi. Podsho qo'mondonligi qamaldagilarga yordam berish u yokda tursin, hatto yaponlarning ko'pgina kuchlari Port-Arturda band bo'lganligidan ham foydalana olmadi.

O'sha yilning dekabrida qal'ani himoya kilishni davom ettirish imkonini bo'lsada, Port-Artur dushmanga topshirildi. Port-Arturning taslim bo'lishi butun urushning borishiga katta ta'sir ko'rsatdi: Yaponiya floti dengizda tanho hukmron bo'lib koldi, ilgari qal'ani qamal kilish bilan band bo'lgan yapon qo'shirlari esa rus armiyasining asosiy kuchlariga karshi tashlandi va harakat kila boshladi. Qal'aniig top-shirilishi rus soldatlari, matroslarining ruhiga yomon ta'sir qildi. No'noq podsho qo'mondonligining jinoyatkorona hatti-harakatlari butun mamlakatda nafrat ko'zg'atdi.

1905 yilning fevralida Mukden yonida o'sha zamondagi eng katta janglardan biri bo'ldi. Unda ikki tomonдан 550 ming kishi katnashdi. Podsho ko'mondonligining qoniqarsiz harakatlari, ko'shirlarni boshqarishda hech qanday tartib bo'lmasligi natijasida rus armiyasi qattiq mag'lubiyatga uchradi. Ruslar 89 ming kishini, yaponlar esa 71 ming kishini yo'kotdi. Rus armiyasi ezilib jang kilish qobiliyatini yo'kotgan edi. Unda inqilobiy g'alayon kuchayib bordi. Urushda butunlay yutqazilgan edi. Burjua-liberal doiralar sulh tuzishni talab kilmoqda edilar.

1904-yildayoq podsho Boltiq floti kemalaridan tuzilgan 2-Tinch okean eskadrasini Uzoq Sharqqa yuborgan edi. Port-Artur topshirilgach va Tinch okean flotining asosiy kuchlari halokatga uchragach, dushmanga teng kelolmaydigan eskadraning Uzoq Sharqqa kelishi behuda bo'lib qoldi. Lekin Nikolay II so'zida turib oldi. U o'jarlik kilib rus dengizchilarini halokat tomon yo'lladi.

1904 yil may oyida Susima oroli yonida dengiz jangi bo'ldi. Rus matroslari va ofitserlari mardona kurashdilar. Rus kemalarining ko'p kismi halok

bo'ldi, boshqalari yaponlar quliga tushdi yoki betaraf portlarga jo'nab ketdi va faqat uchta kema Vladivostokka yorib o'ta oldi. Eskadradan omon qolgani shu edi, xolos.

Urush xavfi tobora ravshanroq ko'rina boshlagan sari, chor hukumati yon berish, shu jumladan, Manjuriya masalasida ham yon berish yo'lini tutdi. Chor hukumati Yaponianing va boshqa davlatlarning Manjuriya bo'yicha Xitoy bilan tuzgan shartnomasini tan olishga rozilik bildirdi. Lekin yaponlar ruslarning murosa tomon intilishini tan olmay, urushni tezroq boshlash maqsadida edilar. 1904- yil 24-yanvarda muzokaralari to'xtatib, urush e'lon qilmasdan jang boshladilar.

Rus-yapon urushi Rossiya bilan Yaponiya o'rtasidagi, shuningdek, Yaponianing Rossiyaga qarshi urushini o'zлari uchun manfaatli deb hisoblagan boshqa davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashib ketishi natijasida bo'ldi. Bu urush o'z xarakteriga ko'ra har ikki tomondan ham adolatsiz urush edi. Bu urush shuningdek, xomashyo manbalari va bozorlar uchun, Xitoyni taqsimlash uchun kurash olib borgan davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida boshlangan urush ham edi.

Qo'shinlar tarqoq holda bo'lib, Port-Artur va Vladivostok garnizonlarida taxminan bittadan diviziya bor edi. Yaponiya ham iqtisodiy jihatdan zaif davlat edi, biroq Angliya va AQSH yordamida u urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rdi.

1904-yil 27-yanvarga o'tar kechasi yapon harbiy kemalari Port-Arturning tashqi reydida yetarli darajada qo'riqlanmay turgan rus kemalariga to'satdan hujum qilib, ikki bronenosets va bitta kreyserni portlatdilar. Ertasi kuni ertalab yapon flotining asosiy kuchlari admirall Togo qo'mondonligida eskadra va shaharni bombardimon qildi. Xuddi o'sha kuni yapon kemalarining boshqa bir otryadi Chemulpoga yaqin kelib, u yerdagi rus kemalariga hujum qildi.

1904- yil 17- iyulda Port-Artur qal'asi uchun bevosita kurash boshlandi. Bu kurash 157 kun davom etdi. Qal'aning quruqlikdagi mudofaasiga general R. I. Kondratenko rahbarlik qildi.

3-avgustda yaponlar qafani bo'shatishni talab qildilar. Rad javobidan keyin yaponlar hamla boshladilar. Lekin bu barbod bo'ldi. Bu birinchi hamla edi.

6-sentabrda general Nogi ikkinchi hamlani boshladi. 9-sentabrda shiddatli janglardan keyin hujum to‘xtatildi.

Yapon qo‘shinlari Port-Artur ostonalarida muvaffaqiyatsizlikka uchragan bir vaqtda, ular Manjuriyaning Shoxe daryosidagi jangda yangi yutuqlarga erishdilar. Port-Arturga 17-oktabrda uchinchi, 13-noyabrda to‘rtinchi hujum boshlandi. Janglar shiddatli tarzda bordi. Kuchlar teng emas edi. 22-noyabr kechqurun yaponlar Visokaya tog‘ini bosib oldilar. Port-Artur mudofaasining bosh tashkilotchisi R. I. Kondratenko bir guruh ofitserlar bilan birga 2- dekabrda halok bo‘ldi.

20-dekabrda qal'a yaponlarga taslim bo‘ldi. Qal'a garnizonining umumiyligi talafoti o‘lganlar va daraksiz ketganlar bo‘lib, 17 ming kishini tashkil qildi. Port-Arturing qo‘ldan ketishi urushning hal qiluvchi davri bo‘ldi. Yaponlar Port-Artur yonidagi Nogi armiyasi hisobiga kuchayib, 1905-yil fevralda Mukdenga hujum boshladilar. Har ikki tomonning kuchlari teng edi. Lekin bu jangda ruslar mag‘lubiyatga uchrudilar. Chor hukumati mag‘lubiyatga uchrashi aniq bo‘lishiga qaramay, bunday holga ko‘nikkisi kelmadi va Tinch okeandagi 2-eskadraga so‘nggi umidini bog‘ladi. Bu eskadra vitse-admiral Rojdestvenskiy qo‘mondonligi ostida edi.

1905-yil 14-mayda rus floti Koreya bo‘g‘oziga kirdi. Jang boshlandi. Jangning birinchi soatlaridanoq ruslarning mag‘lubiyati boshlandi. 15- mayda esa jang yapon floti g‘alabasi bilan yakunlandi. Ruslarning Susima yonidagi mag‘lubiyatidan butun dunyo xabar topdi. Mamlakat ichida esa norozilik chiqishlari boshlandi.

Urush vaqtida Rossiyaning tashqi siyosiy ahvoli nihoyatda yomonlashib ketdi. Chor hukumati Germaniya bilan yanada yaqinlashishga intildi. 1904-yilning oktabrida Rossiya, Angliya baliq ovlovchi kemasini yanglishib, yaponlarniki deb portlatgan edi. Bundan ikki mamlakat munosabatlariga “sovuqchilik” tushdi.

Chorizm siyosiy jihatdan zaiflashganligi va harbiy muvaffaqiyatsizliklarga uchraganligi tufayli Rossiya–Fransiya ittifoqi Fransiya uchun o‘z ahamiyatini birmuncha yo‘qotib qo‘ygan edi.

Ana shunday bir vaziyatda Fransiya bilan Angliya “til topishdilar”. 1904-yil 8-aprelda ular o‘rtasida “samimiy kelishuv” (Antarita) degan bitim tuzildi. Bu bitim asosiy janjalli masalalarini hal qildi va Afrikadagi ta’sir doiralarini tartibga soldi.

1905-yil mayda Nikolay II Amerika elchisini qabul qildi. Elchi AQSH Prezidenti T.Ruzveltning Rossiya bilan Yaponiya o‘rnasida sulh muzokaralarini boslash to‘g‘risidagi takliflarini yetkazdi. Sulh tuzish to‘g‘risidagi muzokaralar Portsmutda (AQSH) olib borildi.

XULOSA

O‘z mustamlakalari hududi jihatidan endi Rossiya Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani orqada qoldirib ketdi. Angliya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Fransiyani ki II million kvadrat kilometrni tashkil qilsa, Rossiyaning birgina Sibir mustamlakasi hududi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Bu davr tarixini tadqiq qilish jaroyonida qaytadan xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo’ldi. Podsho Rossiyasi O’rta Osiyon bosib olgach, bepoyon hududlarga ega bo’ldi. U dunyoning eng yirik mustamlakachi mamlakatiga aylandi. Shuning uchun ham o’sha vaqtlar Rossiya to’g’risida “ulkan miqdordagi mulk o’g’risi” degan haq gaplar aytilib, uning mustamlaka imperiyasi salobatli va shafqatsiz imperiya ekanligi tahlil qilindi.

Ikkinchidan, Qora dehgiz va Bolqon masalasi Rossiya-Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning bosh sababi edi. Serbiya-Turkiya urushi (1876-1877) tugab, 1877yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulk shartnomasiga Serbiya qo’l qo’ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G’arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizatsiya va islohotlar o’tkazishni taklif qildilar. Rossiya aynan bir vaqtida demobilizatsiya o’tkazish haqida muzokara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o’z vakillarini yuborishni so’radi. Ammo Turkiya bu taklifni rad etdi. 1877 yilning 12-aprelida Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e’lon qilish haqidagi manifestga qo’l qo’ydi va Rossiya-Turkiya urushi boshlandi. 1878 yil fevralida San-Stefano qishlog’ida sulk shartomasi tuzilib, Janubiy Bessarabiya va Kavkazdagi Qors viloyati Rossiyaga o’tdi va Rossiyaning katta tovon (kontributsiya) olganligi yoritib berildi.

Uchinchidan, Rossiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati ham turli maqsadlarga yo‘naltirilgan edi. Qrim urushi Uzoq Sharqni mudofaa qilish va unda jiddiyroq mustahkamlanib olish zarurligini ko‘rsatdi. Rus savdo-sanoat doiralari ham Uzoq Sharqning qo’lga kiritilishidan manfaatdor edilar. Amurbo‘yi va Primorye tuprog‘i Xitoy hududiga kirar edi. Ammo unda Xitoy aholisi deyarli yo‘q edi. Amurbo‘yi bilan Ussuri o‘lkasini bosib olganligi munosabati bilan Rossiya uchun bu o‘lkalarni mudofaa qilishda Saxalin g‘oyat muhim o‘rin kasb etgan edi. Bu davrda Rossiya bilan Yaponiya yaxshi munosabatda edilar. Rossiya AQSH, Angliya, Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etmadidi. 1872- yilda

Yaponiyaga doimiy vakil tayinlanib, unga Yaponiya bilan bo‘ladigan munosabatlarda bu mamlakatning ichki ishlariga mutlaqo aralashmaslik haqida ko‘rsatma berilgan edi. Yapon hukumati 1875- yilda Fransiya bilari Germaniya o‘rtasida urush xavfi paydo bo‘lganligidan va Rossiyaning Uzoq Sharqda zaifligidan foydalanib, Janubiy Saxalinga bo‘lgan da’vosidan voz kechish sharti bilan Kuril orolarini Yaponiyaga berish to‘g‘risida shartnoma (1875- yil 25-aprel Peterburg shartnomasi) tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

1904 yil 27 yanvarga o‘tar kechasi Yaponiya floti urush e’lon kilmay turib, Port-Arturagi rus eskadrasiga hujum kildi va uch kemaga shikast yetkazdi.

1905-yil 23-avgustda sulh imzolandi. Rossiya Koreyadagi ta’siridan mahrum bo‘ldi va uni iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan Yaponiya manfaatlari doirasi deb e’tirof qildi, o‘zining Port-Artur va Dalniy hamda bu joylarda bo‘lgan barcha mol-mulkini ijara ga berish huquqidan batamom voz kechdi. **To’rtinchidan**, Rossiyada 1905 va 1907 yillarda bo’lib o’tgan inqilobiy harakatlar xalqning ozodligi va o’z erki uchun olib borgan kurashlari ekanligi tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat” 2008
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., “Sharq” 1998
3. Abduraxmonova D, Rustamova G. XIX asrning ikkinchi yarimi–XX asr boshlarida mustamlaka hokimiyati tizimi. T., 1999
4. Hidoyatov G. Kostetskiy V. O‘zbekiston tarixi. T., “O‘zinkomsentr” 2002
5. Lafasov M. Xoliqov E. Qodirova D. Jaxon tarixi. T., 2002
6. Mukminova R, Bobobekov N. O‘zbekiston tarixi. T., 1994
7. Muxammadjonov A, Ne’matov G. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga oid ba’zi manbalar. T., “Fan”, 1957
8. Rajabov Q, Haydarov M. Turkiston tarixi. T., “Universitet” 2002
9. Ravshanov P, O‘roqov R. Ajdodlarimiz qadri. T., “Sharq” 1999
10. Raximov J. O‘zbekiston tarixi. T., “O‘qituvchi” 1999
11. Raximov J. Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan zabit etilishi. T., 1990
12. Tillaboyev S, Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. T., “Sharq” 2010
13. XX asr boshlarida Turkiston: Milliy istiqlol ildizlari tarixiga doir. T., 2000.
14. Ziyoyev H. O‘zbek xonliklari chorizm tomonidan bosib olinishi tarixiga doir. T., 1990
15. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajavuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., “Sharq” 1998
16. Гинзбург А. Русское население в Туркестане. М., 1991
17. Гулямов Х. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. Т., “Фан”, 1992
18. Зияев Х. Средняя Азия и Сибирь XVI –XIX вв. Т., 1962
19. История и исторография национально-освободительных движений второй половины XIX–начала XX вв. Средней Азии и Казахстана. Т., 1989
20. История России XX век. М., ACT, 2000